


Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:
<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>



Zafar Normatov

Senior lecturer

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

Shodiyakhan Akromova

Student

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Term, terminology, phonetics, doublet, linguistics, acquisition.

Received: 28.05.23

Accepted: 30.05.23

Published: 01.06.23

Abstract: This article discusses the terms of the Pashto language, in particular phonetic terms. The studies of Uzbek and Afghan scientists on this topic were also studied.

PASHTU TILI FONETIK TERMINHLARI

Zafar Normatov

Katta o'qituvchi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

Shodiyaxon Akromova

Talaba

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Termin, terminotizm, fonetika, dublet, tilshunoslik, o'zlashma.

Annotatsiya: Ushbu maqolada pashto tili terminlari, xususan fonetikaga oid terminlar haqida fikr yuritilgan. Mazkur mavzu yuzasidan o'zbek va afg'onshunos olimlar tomonidan qilingan tadqiqotlar ham tadqiq qilingan.

ФОНЕТИЧЕСКИЕ ТЕРМИНЫ ЯЗЫКА ПАШТУ

Зафар Норматов

Старший преподаватель

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

Шодияхан Акромова

Студент

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:
терминотизм, фонетика, языкоизнание, приобретение.

Аннотация: В этой статье термин, дублет, обсуждаются термины языка пушту, в частности фонетические термины. Также были изучены исследования узбекских и афганских ученых по этой теме.

KIRISH

Termin so‘zi turlicha tushunuchalarga ega. Chunonchi, mantiqshunoslar uchun termin aniq obyektga tegishli tavsiflar yig‘indisini nazarda tutuvchi va unda tatbiq etiluvchi so‘z hisoblanadi. O‘zbek tilshunosi A. Hojiyev o‘zining “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati” da terminga quyidagicha ta’rif bergan: “Termin (lot. chek, chegara, chegara belgisi) Fan, texnika va boshqa sohaga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatilish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan so‘z yoki so‘z birikmasi: atama. Terminlar bir ma’noli bo‘lishi, ekspressivlik va emotsiyonallikka ega bo‘lmasligi kabi belgilari bilan ham umumiste’moldagi so‘zlardan farqlanadi. Mas., lingvistik terminlar: gap, ega, ot, son, tovush...; geometriyaga oid terminlar: aylana, uchburchak...; fizikaga oid terminlar: jism, bosim, harakat, maydon; kimyoga oid terminlar: suv, kumush, ishqor, tuzlar va b.

ASOSIY QISM

Bitta soha doirasidagi terminlar terminotizmni tashkil qiladi. Terminlar fanning metatili va ilmiy tadqiqotlarning, shuningdek, insonning amaliy faoliyati sohalarining o‘ziga xos voqeligini anglatuvchi so‘zlar sifatida belgilanishi mumkin. Yuqorida biz o‘zbek olimlarining terminga bergan ta’riflarini keltirib o‘tdik. Yevropa olimlaridan biri O. Vinokumning fikricha, termin har doim aniq va ravshan. Terminlar sistemasi tili ongli shakllantiriladi. Zero, termin o‘z o‘zidan, stixiyali tarzda paydo bo‘lmaydi, balki, zarurligi, jamiyatda unga ehtiyoj sezilgani bois yaratiladi.

Jahon ilm-fanining jadal rivoji tilshunoslikda terminologiyaning alohida mustaqil soha sifatida taraqqiy etishiga turtki bo‘ldi. Ma’lumki, terminologiya fanning sohalariga oid tushunchalarni o‘rganish, turli kasb-hunar, ixtisosliklarni o‘zlashtirishda, ilmiy-texnik taraqqiyotni ifodalashda salmoqli o‘rin tutadi. Bu esa mazkur sohadagi tadqiqotlarga bo‘lgan ehtiyojni oshirmoqda. Jahon tilshunosligida XVIII-XIX asrlardayoq terminologiya muammolariga bag‘ishlangan qator ilmiy tadqiqotlar yuzaga kela boshlagan edi.

Termin haqida izlanishlarimiz davomida asosan o‘zbek tilshunosligidagi termin borasidagi tadqiqot va manbalardan foydalandik. “O‘zbek terminologiyasi” qo‘llanmasi terminologiya sohasida

nafaqat respublika, balki chet el tilshunoslari tomonidan yaratilgan lug‘atlar, monografiyalar, qo‘llanmalar, yoqlangan dissertatsiyalar asosida tayyorlangan bo‘lib, terminshunoslilikka oid bilim, xususiyat va ko‘nikmalami egallashga qaratilgan. Mavzulami xronologik izchillik va tartib bilan joylashtirishda talabalaming malakasi hamda fikrlash qobiliyatları e’tiborga olingan. Shu bilan birga, o‘zbek tilshunoslida termin haqida yozilgan maqolalar ham salmoqli hissani tashkil etadi. A. Sabirov tomonidan yozilgan “Termin va terminologiyaga berilgan ta’riflar” nomli maqolada terminga berilgan nafaqat o‘zbek olimlari, balki, Yevropa olimlarining ham ta’riflari keltirib o‘tilgan. U. Ubaydullayeva tomonidan yozilgan maqolada terminologik tadqiqotlarning nazariy asoslari, terminologiya sohasidagi muammolar haqida so‘z boradi.

Ushbu ma’lumotlar asosida termin haqida qisqacha ma’lumotga ega bo‘lgan holda pashtu tilshunosligening terminlarini tahlil qilishga harakat qilamiz Muayyan tilning so‘z boyligi o‘z tarkibida maxsus tushunchalarni ifodalovchi terminologik leksikani u yoki bu darajada qamrab olishi tilshunoslilikda e’tirof etilgan voqelik hisoblanadi. Har bir tilning tilshunoslida aniq bir ma’noga ega, doim maxsus tushunchalarni anglatish, ifodalash uchun yo‘naltirilgan terminlar mavjud bo‘lganidek, pashtu tili ham bundan mustasno emas.

Pashtu tili grammatik terminlari fondini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, bugungi kunda iste’molda bo‘lgan terminlar kelib chiqishi va rivojlanish nuqtai nazaridan xilma-xil ko‘rinishga ega. Afg‘onshunos olim R. Inomxo‘jayev fikriga ko‘ra, pashtu tili tilshunoslilik terminlari quyidagi besh manba asosida shakllangan bo‘lib, ular yakka holda ham, turli tarkibdagi kombinatsiyalarda ham namoyon bo‘ladi, jumladan, 1) arabcha o‘zlashmalar va arab tili resurslari ishtirokida yasalgan terminlar, 2) dariycha o‘zlashmalar va dariy tili resurslari ishtirokida yasalgan terminlar, 3) pashtu tili asosida va pashtu tili resurslari ishtirokida yasalgan terminlar, 4) xorijiy til o‘zlashmalar, 5) pashtu tili fonetik-morfologik xususiyatlari moslashgan o‘zlashmalar. Pashtu va dariy tillari Afg‘oniston hududida so‘zlashiladigan rasmiy til bo‘lganligi har ikki tilda ham bir-biridan so‘zlarni o‘zlashtirishiga sabab bo‘lgan. R. Inomxo‘jayev fikricha, pashtu tilshunoslida dariy tili va dariy tili resurslari assosida yasalgan va pashtu tiliga o‘zlashgan terminlar salmoqli hissani tashkil etadi. Shu bilan birga pashtu tili grammatikasi tarixan arab tilshunosligi va grammatik nazariyasi asosida shakllanganligini nazarda tutish lozim. Bu esa pashtu tili terminlar fondining arab tili va arab tili resurslari ishtirokida yasalgan o‘zlashma terminlar bilan boyishiga ham katta ta’sir ko‘rsatgan. E’tiborli jihat shundaki, pashtu tilshunosligiga kirib kelgan bunday o‘zlashmalar terminning dublet holatini yuzaga keltirgan. Hozirgi pashtu tilshunoslida ayrim o‘zlashgan terminlarni pashtuchaga almashtirish yoki har ikkisini baravar ishlatish tamoyili mavjud. Chunonchi, ba’zi tilshunoslар terminologiyada neytrallik bo‘lishini hisobga olib, bir tushunchani anglatuvchi turlicha ifodalarni “*dublet terminlar*” deb atashsa, boshqa bir qator olimlar esa uni “*sinonim*” deb ham atash mumkinligini qayd etganlar. Ba’zi olimlar esa, terminalogiyadagi

sinonimlik umumadabiy tildagidan bir muncha farq qilishini va shu boisdan ham ularni “*dublet*”deb aytayotganliklarini qayd etganlar.

Umuman, nafaqat terminalogiyada, hatto tilshunoslikda ham “*sinonim*”, “*dublet*” va “*variantlilik*” kabi tushunchalarning o‘ziga xos xususiyatlari aniq belgilanmagan hamda ularni farqlash masalasi hali to‘liq hal etilmagan.

Grammatika kengligi va unga oid terminlarning ko‘pligi sababli ularni bo‘limlarga bo‘lib tahlil qilishni ma’qul ko‘rdik. Ushbu maqolada pashtu tilshunosligining fonetik terminlari tadqiq etildi.

Fonetikada tildagi tovushlar, ularning paydo bo‘lishi va turlari, nutq organlari, ularning tovush hosil qilishdagi harakat holati, nutq apparati, nutq tovushlarining akustik va artikulyatsion xususiyatlari, nutq jarayonida sodir bo‘ladigan turli xil fonetik hodisalar, nutqning fonetik bo‘linishi, tovushlarining kommunikativ roli hamda prosodika kabi hodisalar o‘rganiladi.

Pashtu tili hind-yevropa tillariga mansub bo‘lib, uning grammatisasi, jumladan, fonetikasida ham o‘zbek tilidan farq qiluvchi terminlar mavjud.

Maqolamizning asosiy masalasi pashtu tilida terminlarning dublikat holati mavjudligidir. Pashtu tilshunosligi fonetika bo‘limining terminlari misolida bu holatni ko‘rishimiz mumkin. Birgina fonetika termini غربیوهنه، آوازشناسی؛ آوازپوهه؛ فونولوچی؛ واکشناسی kabi variantlariga ega. Pashtu olimlarining grammatik asarlariga nazar tashlansa, ular tomonidan pashtu tiliga oid terminlar ishlatilishiga guvoh bo‘lish mumkin. Jumladan, pashtu tilshunosi Mujovir Ahmad Ziyor o‘zining “پښتو پښویه” nomli grammatik asarida fonetikani آوازپوهه shaklida qo‘llagan.

Darhaqiqat, ma’lum bir tilshunoslik terminining o‘z tilida ifoda qilish imkonini bo‘lsa, aksariyat olimlar o‘z tilida yasalgan terminlardan foydalanishni afzal ko‘rishadi. Fonetika bo‘limidagi asosiy terminlardan biri tovush pashtu tilida غر، اوال، اواز variantlarida ifoda etiladi. Mujovir Ahmad Ziyor “د پښتو ګرامر” grammatik kitobida tovush terminini اواز Va غر shakllarida qo‘llagan. Pashtu tilshunosi Kamron Mangal Afg‘onning kitobida tovush termini غر shaklida berilgan.

Pashtu tili fonetikasida ham o‘zbek tili fonetikasida bo‘lganidek tovushlar 2 turga: 1) unli, 2) undoshga bo‘linadi. Undosh tovushlar pashtu tilida صامت اصلی اواز terminlari bilan nomlanadi. Unli tovushlar uchun آواز حرف، امدادی حرف، توري حپ، آمدادی حرف terminlari foydalilanadi.

Pashtu tilida o‘zbek tilidan farqli ravishda diftong (غږ، غږک، ديفتونگ) termini mavjud.

XULOSA

Maqolamizda termin haqida fikr yuritilib, o‘zbek va pashtu tilshunoslik terminlarini solishtirib, o‘xhash va farqli jihatlari o‘rganib chiqildi. Bundan tashqari pashtu tilshunosligida terminlarning dublikat holati mavjudligi va hozirgi pashtu tilshunosligida bu terminlarning qaysi muqobil varianti kengroq qo‘llanilishi masalasi muhokama qilindi. Pashtu tilshunoslik terminlariga doir bir qancha tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsada, bu yo‘nalishda hali tadqiq etiladigan masalalar ko‘p. Chunonchi, pashtu tilshunoslik terminlari borasida ko‘proq materiallar yig‘ish, yanada chuqur nazariy tahlil olib borgan holda pashtu tilshunoslik terminlarining kelib chiqish va rivojlanish bosqichlarini alohida o‘rganish hamda ularning tildagi ahamiyatini tahlil qilish shular jumlasidandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. — T., 2019
2. Inomxo‘jayev R. Pashtu tili grammatik terminlar lug‘ati. — T., 2020.
3. Nabiyeva D.A., Zokirova H.R. O‘zbek tili fonetikasi. — Andijon 2016.
4. Pardayev A.B., Urinboyeva D.B., Islamova D.A. O‘zbek terminologiyasi. — Samarqand 2020.
5. Ubaydullayeva U. Terminologik tadqiqotlarning nazariy asoslari. — Samarqand, 2022.
6. Yo‘ldoshev I., Sharipova O‘. Tilshunoslik asoslari. — T., 2007.